O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Andijon shaxar, Abdurauf Fitrat ko’chasi 239-uy

2024 - yil 30 - aprel 150-1-0-Q/24 Andijon viloyati hokimligi

Andijon viloyatining Baliqchi, Oltinko‘l, Izboskan, Paxtaobod, Asaka, Marhamat, Jalaquduq va Qo‘rg‘ontepa tumanlaridan o‘tuvchi ayrim avtomobil yo‘llarida harakatlanish tezligini 60 km/soat va 70 km/soat etib belgilashga (tegishli yo‘l belgilari o‘rnatib) ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qaroriga muvofiq, shuningdek, avtomobil yo‘llarida yo‘l-transport hodisalari kelib chiqish sabablarining oldini olish, ularning og‘ir oqibatlarini kamaytirish maqsadida viloyat IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 18 martdagi 7/2-538-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Viloyat IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 18-martdagi 7/2-538-sonli xati inobatga olinsin.

2. Quyidagi avtomobil yo‘llarida barcha avtomototransport vositalari harakatlanishining **yuqori tezligi soatiga 60 kilometr etib belgilansin:**

4R-112 “Farg‘ona halqa yo‘li” avtomobil yo‘lining **Baliqchi tumani hududidan o‘tuvchi 106-113 km** lari va **Oltinko‘l tumani hududidan o‘tuvchi 135-139 km** lari;

4R-132 “Poytug‘ shahar – Qizil ko‘prik qishlog‘i – Paxtaobod shahar – Bozorqo‘rg‘on qishlog‘i” avtomobil yo‘lining **Izboskan va Paxtaobod tumanlari hududidan o‘tuvchi 6-24 km** lari;

4R-138 “Shahrixon shahar – Asaka shahar – Marhamat shahar – Qizilqiya qishlog‘i” avtomobil yo‘lining **Asaka tumani hududidan o‘tuvchi 12-20 va 24-25 km** lari va **Marhamat tumani hududidan o‘tuvchi 25-39 km** lari;

4R-136 “Ko‘tarma qishlog‘i – Qorasuv – Xonobod avtoyo‘li – Topolino qishlog‘i” avtomobil yo‘lining **Jalaquduq tumani hududidan o‘tuvchi 8-18 km** lari.

3. Quyidagi avtomobil yo‘llarida barcha avtomototransport vositalari harakatlanishining **yuqori tezligi soatiga 70 kilometr etib belgilansin:**

4R-112 “Farg‘ona halqa yo‘li” avtomobil yo‘lining **Baliqchi tumani hududidan o‘tuvchi 118-121 km** lari va **Oltinko‘l tumani hududidan o‘tuvchi 124-126 km** lari**.**

4. Viloyat IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Nosirov) Andijon avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasi (M.Nurmatov) **yuqori tezlik soatiga 60** va **70 kilometr** etib belgilangan avtomobil yo‘llariga **7.2.1. “Ta’sir oralig‘i”, 3.24. “Yuqori tezlik cheklangan” va 3.25. “Yuqori tezlik cheklangan hududning oxiri” yo‘l belgilarini o‘rnatsin.**

5. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Ibrohimov IIB JXX yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Nosirov) bilan birgalikda ushbu qarorning **mazmun va mohiyati ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini hamda aholi e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.**

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari I.Xolmatov va viloyat hokimligi guruh rahbari B.Nazirov zimmalariga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **SH.Q.Abdurahmanov**